

TURLI KASALLIKLAR NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN RUHIY BUZILISHLAR

Rahimjonova Munavvar Talatbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika Logopediya yo'nalishi, 1-bosqich talabasi E-mail:

uzuz68864@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21153312>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan somatik va infeksiyon kasalliklarning ruhiy rivojlanishiga ta'siri hamda ularning oqibatida yuzaga keladigan funksional buzilishlar ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda kasallik davridagi va undan keyingi quvvatsizlik belgilari, emotsional beqarorlik va aqliy intilishlarning pasayishi kabi muammolarning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Shuningdek, xastalikdan keyingi davrda bolaning asab tizimini asrash, uning bilim olish qobiliyatini tiklashda har bir bolaga alohida yondashuvning o'рни hamda ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, aqli zaif bolalarda ko'ruv idroki, xotira va diqqat jarayonlari o'ziga xos tarzda shakllanib, korreksion yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Kompleks tibbiy-pedagogik, psixologik va ijtimoiy chora-tadbirlar bolaning ruhiy salomatligini tiklashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ruhiy buzilish, emotsional beqarorlik, somatik kasalliklar, simptomatik psixozlar, aqli zaiflik, ko'ruv idroki, xotira, diqqat, kompensator mexanizmlar, korreksion ta'lim, individual yondashuv, inklyuziv ta'lim.

Аннотация: В данной статье проведён научный анализ влияния соматических и инфекционных заболеваний у детей на их психическое развитие, а также функциональных нарушений, вызванных ими. Изучены причины возникновения таких проблем, как астенические симптомы во время болезни и после неё, эмоциональная нестабильность и снижение умственной активности. Также рассмотрены роль и значение индивидуального подхода в сохранении нервной системы ребёнка и восстановлении его способности к обучению. Результаты исследования показывают, что комплексные медико-педагогические, психологические и социальные меры играют решающую роль в восстановлении психического здоровья ребёнка.

Ключевые слова: психическое расстройство, эмоциональная нестабильность, соматические заболевания, симптоматические психозы, умственная отсталость, зрительное восприятие, память, внимание, коррекционное обучение, индивидуальный подход, инклюзивное образование.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the effects of somatic and infectious diseases in children on their mental development, as well as the functional disorders resulting from them. The study examines the causes of problems such as asthenic symptoms during and after illness, emotional instability, and decreased mental aspirations. The role and

importance of an individual approach to each child in preserving the nervous system and restoring cognitive abilities in the post-illness period are also analyzed. Research results indicate that in children with intellectual disabilities, visual perception, memory, and attention processes develop in specific ways and can be improved through corrective approaches. Comprehensive medical-pedagogical, psychological, and social measures play a decisive role in restoring a child's mental health.

Keywords: mental disorder, emotional instability, somatic diseases, symptomatic psychoses, intellectual disability, visual perception, memory, attention, compensatory mechanisms, corrective education, individual approach, inclusive education.

Kirish. Ong bosh miya po'stlog'ining eng zo'r faolligining natijasidir. Ongi sog'lom kishilar atrof-muhitni va o'z xatti-harakatlarini hamda vaqtni to'g'ri baholaydilar. Ba'zi somatik va yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar, alkogolizm ruhiy o'zgarishlar bilan davom etadi [1]. Somatik kasalliklarning ruhiy o'zgarishlari asosiy kasallikning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bu emotsional alomatlar (depressiya, xavotirlanish, vahimaga tushish, tajanglik, eyforiya bilan o'tadigan nevrozsimon kasalliklar) va es-hushning turli darajada buzilishi (karaxtlik, amensiya, deliriy, sopor, koma) hamda tutqanoq xurujiga o'xshash holatlar tarzida namoyon bo'ladi.

Bunday psixozlar surunkali va yuqumli kasalliklar, zaharlanish, alkogolizm hamda bemorning jinsi, yoshi va kasallikning og'irlik darajasiga bog'liq bo'ladi [2]. Mazkur tadqiqot bolalarda uchraydigan ruhiy buzilishlarning kelib chiqish sabablarini, ularning klinik ko'rinishlarini va pedagogik-psixologik korreksiya yo'llarini kompleks o'rganishga qaratilgan.

Simptomatik psixozlar va ularning turlari. Simptomatik psixozlar o'tkir va uzoq muddat davom etadigan turlarga bo'linadi. O'tkir psixozlardan keyin ko'pincha asoratlar qolmaydi. Uzoq muddatli turida esa sog'ayishdan keyin psixoorganik asoratlar qolishi mumkin.

O'tkir simptomatik psixozlar qisqa vaqt davom etib, astenik buzilishlar (bosh og'riq, lohaslik, harakat bezovtaligi, vahima, ruhiy tushkunlik, uyqu buzilishi, giperesteziya) bilan kuzatiladi. O'tkir psixoz bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi va karaxtlik, deliriy, amensiya, oneyroid, tutqanoq alomatlari bilan o'tadi.

Uzoq muddatli simptomatik psixozlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Depressiyalar — bu holatlar kechqururlari kuchayadi, astenik holat bilan birga davom etadi.

2. Depressiv-vasvasa holatlari — bemorlarni kuchli vahima, qo'rquv bosib, ayblash va ta'na qilish g'oyalari, illuziya va eshitish gallutsinatsiyasi kuzatiladi.

3. Gallutsinator-paranoid holatlar — ta'qib qilish vasvaslari, eshitish gallutsinatsiyasi va o'tkir paranoid holatlar bilan xarakterlanadi.

4. Moniakal holatlar — harakatsiz maniya, eyforiya va astenik buzilishlar bilan namoyon bo'ladi.

5. Konfabulyoz holatlar — bemor xotirasining joyida bo'lishi bilan birga, haqiqatda bo'lmagan voqealar haqida gapiriladi.

Shizofreniya yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, ruhning parchalanishi yoki boʻlinishi degan maʼnoni bildiradi. Shveytsariyalik olim Bleyler bu kasallikning klinik manzarasini aniqlagan [1], shuning uchun u Bleyler kasalligi deb ham ataladi. Shizofreniya aholi oʻrtasida 1-2 % gacha uchraydi va koʻproq 15-35 yoshdan boshlanadi.

Aqli zaif bolalarning koʻruv idroki. Hozirgi kunda eng koʻp oʻrganilgani aqli zaif oʻquvchilarning koʻruv idroki hisoblanadi. Koʻrish analizatori boshqalariga nisbatan atrof-olam haqidagi turli xil axborotlarni olishga yordam beradi. Koʻrish orqali idrok etish juda murakkab jarayon boʻlib, unda koʻpgina qoʻzgʻatuvchilar koʻzga oʻz taʼsirini koʻrsatadi.

L.V. Zankov taʼkidlaganidek, "aqli zaif bolalarda obyektini koʻrish orqali idrok etish jarayoni sogʻlom bolalarga qaraganda ancha sekinlashgan boʻladi". Tadqiqotlar koʻrsatishicha, bolalarga yaxshi tanish boʻlgan rangli rasmlarni 22 millisekund vaqt davomida koʻrsatganda, aqli zaif bolalar ularni taniy olmagan. Ommaviy taʼlim maktabining 1-sinf oʻquvchisi esa koʻrsatilgan rasmlarning 57 % ini toʻgʻri ayta olgan.

Aqli zaif bolalarning xotirasi va diqqati. Aqli zaif bolalar xotirasi sogʻlom bolalar xotirasidan birmuncha farq qiladi. G.Y. Troshin, L.V. Zankov, B.I. Pinskiy va G.M. Dulnev oʻz tadqiqotlarida: "Aqli zaif bolaning xotirasi toʻxtab qolgan emas, uni toʻgʻri korreksiya orqali rivojlantirish mumkin" deb taʼkidlashgan [3]. Xotiraning rivojlanishiga koʻrish, eshitish, taʼm bilish va sezish analizatorlari oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Aqli zaif bolalar diqqatining oʻziga xosligi bir qancha omillarga bogʻliq. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari — nerv jarayonlarining kam harakatliligi, dominantaning zaifligi, moʻljal olishning buzilishi — butun shaxsiy rivojlanishda chuqur iz qoldiradi. Bu holat bolaning analiz va sintez jarayonlarini talab etuvchi vazifalarni bajarishida yaqqol namoyon boʻladi.

Ruhiiy buzilishlarni bartaraf etish boʻyicha tavsiyalar. Bolalarda turli jismoniy xastaliklar oqibatida kelib chiqadigan ruhiy oʻzgarishlarni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi. Quyida asosiy chora-tadbirlar keltirilgan:

Tibbiy-pedagogik yondashuv: Bolaning asab tizimini asrash uchun shaxsiylashtirilgan rejim joriy etiladi. Kasallikdan keyingi asteniya davrida oʻquv yuklamalarini kamaytirish, dars vaqtini qisqartirish va dam olish oraliqlarini koʻpaytirish zarur.

Psixologik korreksiya usullari: Boladagi emotsional beqarorlik va qoʻrquvni yengishda oʻyin terapiyasi eng samarali vositadir. Rolli oʻyinlar orqali bola ichidagi kuchlanishni tashqariga chiqaradi. Art-terapiya (rasm chizish, loy bilan ishlash) miya poʻstlogʻining faollashishiga va ruhiy muvozanatning tiklanishiga yordam beradi.

Muhit va ijtimoiy moslashuv: Bogʻchada bola uchun "muvaqqafiyat vaziyati"ni yaratish lozim. Kichik yutuqlarni ham ragʻbatlantirish bolada oʻziga boʻlgan ishonchni qayta tiklaydi. Tengdoshlari bilan muloqotni sekin-asta, kichik guruhlarda muloqotdan boshlab tiklash tavsiya etiladi.

Oila bilan hamkorlik: Ota-onalarga bolaning uyqu rejimi va toʻgʻri ovqatlanishiga rioya qilish, ortiqcha raqamli texnologiyalardan cheklash boʻyicha metodik tavsiyalar beriladi. Oiladagi ijobiy emotsional muhit ruhiy barqarorlikni tiklashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa. Bolaning ruhiy salomatligini muhofaza qilish-uning kelajakdagi intellektual salohiyatini saqlab qolish demakdir. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, somatik va infeksiyon kasalliklar bolaning sensor, kognitiv va emotsional rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Aqli zaif bolalarda ko’ruv idroki, xotira va diqqat jarayonlari o’ziga xos tarzda shakllanib, maqsadli korreksion ta’lim orqali rivojlantirilishi mumkin.

Har bir bolaga uning sog’lig’ holatidan kelib chiqib, individual va mehrga asoslangan yondashuvni qo’llash ularning nafaqat bilimli, balki ruhan sog’lom va baquvvat bo’lib kamol topishiga xizmat qiladi. Kompleks tibbiy-pedagogik, psixologik va ijtimoiy chora-tadbirlar bolaning ruhiy salomatligini tiklashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo’minova L.R. Maxsus psixologiya. – Toshkent: O’qituvchi, 2015. – B. 248.
2. Shodmonov X. Asab va ruhiy kasalliklar. – Toshkent: Tibbiyot, 2018. – B. 312.
3. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 196.
4. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika): kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma. – Toshkent: TDPU, 2020. – B. 278.
5. BOTIROVA, S. (2025). NUTQ MADANIYATI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING UYG’UNLIGI: TARIX FANI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. «ACTA NUUz», 1(1.2), 82-84.
6. Botirova, S. Developing Speech Skills Of School Students In Teaching History Of Uzbekistan. *European Scholar Journal*, 4(12), 62-64.
7. Azamovna, R. G., & Munira, V. (2022). Case Study and TECHNOLOGY of Using Non-standard Tests in the Development of Educational and Creative Activities. *JournalNX*, 8(12), 277-282.
8. Turg’unpo’latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta’limda logopedik yordamning o’rni. *Science and Education*, 6(5), 350-355.
9. Munira, V. (2025). Alaliya nutq nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan turli metodlar. *Science and Education*, 6(2), 283-288.
10. Munira, V. (2025). ALALIYA IMPROVISATIONAL METHODS OF PREPARATION FOR WORK ON SPEECH IMPAIRMENT. In *International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (pp. 93-97).